



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**Qishloq hammomlarining qurilishi, jihozlanishi va sanitariya
tartibiga oid sanitariya qoidalar va normalari**

**O‘zbekiston Respublikasining
0316-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

S.S. Saydaliyev

29-sentyabr 2014 yil

**Qishloq hammomlarining qurilishi, jihozlanishi va sanitariya
tartibiga oid sanitariya qoidalari va normalari**

**O‘zbekiston Respublikasining
0316-14- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014

Ishlab chiquvchi muassasa: O‘zR SSV Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti

Tuzuvchilar:

Qo‘chqorova M.R. – SGKK ITI Aholi punktlari, turar-joy va jamoat binolarini rejalashtirish gigiyenasi laboratoriyasi mudiri, t.f.n., k.i.x.

Mirzakarimova M.A. – SGKK ITI Aholi punktlari, turar-joy va jamoat binolarini rejalashtirish gigiyenasi laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, t.f.n.

Xaqnazarova G.Sh. – SGKK ITI Aholi punktlari, turar-joy va jamoat binolarini rejalashtirish gigiyenasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi

Sultonova N.V. - SGKK ITI Aholi punktlari, turar-joy va jamoat binolarini rejalashtirish gigiyenasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi

Taqrizchilar:

Nuraliev N.A. - O‘zR SSV Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI bosh ilmiy xodimi, t.f.d., professor

Slavinskaya N.V. – O‘zR SSV SGKK ITI mehnat fiziologiyasi laboratoriyasi mudiri, t.f.n., k.i.x.

Mirshina O.P. – Sog‘liqni saqlash vazirligining kommunal gigiyena bo‘yicha bosh mutaxassisi, Respublika DSENM kommunal gigiyena bo‘limi mudiri, t.f.n.

Ushbu sanitariya qoidalari va normalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Inson atrof-muhitining potensial noqulay omillarini gigiyenik tartibga solish qo‘mitasi yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va ma‘qullandi

(20__-yil " __ " _____dagi _____-son bayonnoma)

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi

(20__-yil " __ " _____dagi _____-son xat)

Ushbu sanitariya qoidalari qishloq aholisi uchun optimal yashash sharoitlarini yaratish maqsadida o‘rnatilgan bo‘lib, O‘zR SSV DSENMning kommunal gigiyena bo‘yicha shifokorlari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu sanitariya me‘yorlari va qoidalariga mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar, barcha kommunal xo‘jaliklar, shuningdek hammomlarni loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi loyiha, qurilish va boshqa tashkilotlar rioya qilishlari shart.

Sanitariya me‘yorlari, qoidalari va gigiyenik normativlarga rioya qilmaslik qonun bo‘yicha jazolanadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARIDAN KO‘CHIRMA

1. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida"gi Qonuni

1992 yil 3 iyuldagi 657-XXII-son - 10-, 11-, 19-, 21-, 29-moddalar.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 19 sentyabrdagi 446-sonli "Fuqarolar sog‘lig‘ini muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni; 2002 yil 28 iyundagi 236-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi 353-I-sonli "Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida"gi Qonuni - 4-, 11-, 21-, 22-moddalar.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 25 dekabrdagi "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida"gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 10 dekabrdagi PQ-1500-sonli Qarori.

1.UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu qoidalar hammomning qurilishi, jihozlanishi, sanitariya rejimi va hammom xodimlarining shaxsiy Gigiyenasiga qo‘yiladigan asosiy talablarni o‘z ichiga oladi. Ushbu SanQvaMda keltirilgan Gigiyenik va sanitariya talablarini bajarish hammomlarda tegishli sanitariya rejimini saqlash imkonini beradi. Yangi qurilgan hammom binolari, shuningdek, ta‘mirlash yoki qayta qurish ishlari o‘tkazilgandan so‘ng hammomlar faqat amaldagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq bo‘lgan taqdirdagina foydalanishga ruxsat etiladi. SanQvaMning amal qilishi mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha hammomlarga tatbiq etiladi.

1.2. Ushbu SanQvaM talablarining bajarilishi uchun javobgarlik hammom rahbarlariga yuklanadi.

2. HAJMIY-REJALASHTIRISH VA KONSTRUKTIV ECHIMLAR

2.1. Hammomlarni shaharlar va boshqa aholi punktlari qurilishini rejalashtirish tizimiga muvofiq aholiga kompleks xizmat ko‘rsatish doirasida ko‘zda tutish lozim. Hammomlar alohida binolarda yoki maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari bilan bir binoda joylashtirilishi kerak.

2.2. Hammomlarning sig‘imi aholi soniga qarab belgilanadi. Aholisi 3000 dan 4000 kishigacha bo‘lgan aholi punktlarida bir smenada 15-20 kishiga mo‘ljallangan, aholisi 4001-5000 kishi bo‘lganda esa bir smenada 50 kishiga mo‘ljallangan hammomlar ko‘zda tutiladi.

2.3. 20 va undan ortiq o‘rinli hammomlar erkaklar va ayollar bo‘limlariga ega bo‘lishi shart. Vestibyl va garderoberlar erkaklar va ayollar bo‘limlari uchun umumiy bo‘lishi mumkin.

2.4. 20 va undan kam o‘rinli hammomlarni erkaklar va ayollarga navbatma-navbat xizmat ko‘rsatish uchun bitta bo‘lim bilan loyihalashga ruxsat beriladi.

2.5. Ayollar va erkaklar bo‘limlaridagi o‘rinlar soni 50 tadan ortiq bo‘lgan hammomlarda bolali tashrif buyuruvchilar uchun joylar ko‘zda tutilishi shart.

2.6. 100 o‘ringacha bo‘lgan hammom binolari qavatlarining balandligi kamida 3,3 metr bo‘lishi lozim.

2.7. Binolarning yong‘inbardoshlik darajasi III darajadan past bo‘lmasligi kerak. 20 o‘rinli va undan kam o‘rinli hammom binolarini IV - V darajali yong‘inbardoshlik bilan loyihalashga ruxsat etiladi.

2.8. Hammom binolari qurilish qizil chizig‘idan kamida 10 metr masofada joylashtirilishi lozim.

2.9. Hammom xonalarining tarkibi hammomlarning sig‘imi, shaharsozlik va mahalliy sharoitlarga qarab belgilanishi kerak. Hammom xonalarining o‘rinlar soni va maydonini 1-jadvalga muvofiq qabul qilish zarur.

1-jadval

T/r	Xonalar nomi	O‘rinlar soni bo‘yicha hammomlarda 1 kishiga m ² hisobidagi maydon		Jami kamida
		20	50	
1	Garderoberli vestibyl	0,23	0,45	10
2	Kutish xonasi	0,37	0,75	
2	Echinish xonalari	0,9	1,8	
3	1 ta dushli yuvingich xonalari	36		
4	2 ta dushli yuvingich xonalari		80	
5	Bug‘xonalar		9	
6	Sartaroshxona	10	15	
7	Yordamchi va qo‘shimcha xonalar			
8	Ma‘muriyat xonalari		12	
9	Kassa		2	
10	Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun xona, kamida		6	6
11	Ovqatlanish xonasi		6	
12	Yuvish anjomlari ombori		4	
13	Tozalash anjomlari uchun omborxona		2	
14	Hojatxona	3	5	

Izohlar:

1. Gigiyenik xonalarda yechinish xonasi, yuvingich xonasi (yoki dushxona) va bug‘xona o‘rinlarining nisbati 50 o‘rinli va undan kam hammomlarda 100:85:20 bo‘lishi kerak.

2. Xonalar guruhlari tarkibi qisqartirilganda, Gigiyenik xonalar guruhidagi o‘rinlar soni tegishli ravishda ko‘paytirilishi lozim.

3. 50 va undan kam o‘rinli hammomlarda yechinish va kutish xonalarini birlashtirish mumkin.

4. Bir bug‘xonaning sig‘imi 10 kishidan oshmasligi kerak.

5. 50 va undan ortiq o‘rinli hammomlarda tezkor kir yuvish xonalarini loyihalashga ruxsat etiladi. Bir smenada bir o‘ringa 1-1,5 kg quruq kiyim hisobidan. Bunday holda, hammomning yechinish xonasidan kir yuvish xonasiga kiyimlarni bevosita uzatish imkoniyati ko‘zda tutilishi lozim.

2.10. Hammom xonalaridagi o‘tish yo‘llarining kengligini 2-jadvalga muvofiq belgilash kerak.

2-jadval

Xonalar va o‘tish joylari	O‘tish joylarining kengligi (m)
Echinish xonalari:	
o‘rindiqlar orasidagi asosiy yo‘lak	1,5
o‘rindiqlar orasidagi yo‘laklar	1,2
o‘rindiqlar va devor yoki jihozlar orasidagi yo‘laklar	1,1
Yuvunish xonalari:	
suv olish jo‘mraklari ikki tomonlama joylashgan asosiy yo‘lak	2
suv olish jo‘mraklari bir tomonlama joylashgan asosiy yo‘lak	1,8
o‘rindiqlar orasidagi yo‘lak	1,5

2.11. 20 va undan ortiq o‘rinli hammomlarni sanitariya o‘tkazgichlari sifatida foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda loyihalashtirish lozim. Buning uchun quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

- ayollar va erkaklar bo‘limlari orasida yuvunish va dush xonalarida zaxira eshiklar;

- yuvunish xonalarida, o‘rindiqlar orasidagi yo‘laklarda maxsus yuvinish dushlari;

- yuvunish va dush xonalaridan chiqishda, sanpropusknikning toza qismidagi yechinish xonasiga qo‘shimcha yuvinish uchun dush qurilmalari;

- xonalar va uskunalarini davriy dezinfeksiya qilish uchun moslamalar;

- yer uchastkasida - 50 va undan kam o‘rinli hammomlar uchun 0,06 gektar, 50 o‘rindan ortiq hammomlar uchun esa 0,1 gektar maxsus maydonchalar ajratiladi.

Dezinfeksiya kameralari xonalarining tarkibi va jihozlari maxsus topshiriq asosida belgilanadi. Ishlov berilmagan kiyimlarni qabul qilish va ishlov berilgan kiyimlarni berish xonalari tegishli yechinish xonalariga tutashgan bo'lishi lozim.

2.12. Yechinish xonalari har bir tashrif buyuruvchi uchun 0,9x0,5 m o'lchamli, bolalar bilan kelgan tashrif buyuruvchilar uchun esa 1,2x0,5 m o'lchamli alohida o'rindiqlar bilan jihozlanishi kerak. Qatorda o'rindiqlar soni oltitadan oshmasligi lozim. Yechinish xonasida bitta yuvinish krani va 0,85 x 1 m o'lchamli bitta oyoq dushi o'rnatilishi kerak. Har bir yechinish xonasida ko'zgu va har 25 o'ringa bitta soch quritgich bo'lishi shart.

2.13. Yechinish xonalari yonida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xonalari, kiyim-kechak, yuvish anjomlari va tozalash jihozlari uchun omborxonalar joylashtirilishi lozim.

2.14. Sovunxonalar 0,5x1 m o'lchamli skameykalar bilan jihozlanishi kerak (bir qatorda 6 tadan ortiq bo'lmagan skameykalar); qatordagi skameykalar orasidagi va skameyka bilan devor orasidagi masofa 2-jadvalga muvofiq bo'lishi lozim. Nogironlar uchun skameykalar sovunxonadagi umumiy o'rinlar sonidan kelib chiqqan holda 0,5x1,8 m o'lchamda ko'zda tutilishi kerak.

2.15. Har 6 ta sovunxona o'rni uchun balandligi 1,5 m bo'lgan to'siq bilan o'ralgan suv olish kolonkalari o'rnatilishi kerak, to'siqning pastki qismi poldan 0,2 m balandlikda bo'lishi lozim. Har 12 o'ringa ochiq kabinada yuvinish uchun bitta dush ko'zda tutilishi kerak.

2.16. O'lchamlari 0,9x0,9 m bo'lgan sovun va dush xonalaridagi ochiq dush kabinalari 2 m balandlikdagi to'siqlar bilan ajratilishi lozim, poldan to'siqning pastki qismigacha bo'lgan masofa 0,2 m bo'lishi kerak. Dush kabinalari tutqichlar, devorga o'rnatilgan sovundonlar va liflar uchun ilgaklar bilan jihozlanishi shart.

2.17. Sovun yoki dush xonalariga kirish tamburlar orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilishi kerak.

2.18. Rus tipidagi bug'xonalar ko'zda tutilishi lozim. Bug'xona tokchalarida o'lchamlari 1,2 x 0,5 m bo'lgan alohida o'rindiqlar, shuningdek, o'lchamlari 1,8 x 0,5 m bo'lgan bitta yotish o'rindig'i bo'lishi kerak. Suv olish jo'mraklarini tokchalarga o'rnatish taqiqlanadi.

2.19. Bug'xona tokchasidan shiftning chiqib turgan qismigacha bo'lgan balandlik kamida 1,8 m bo'lishi lozim.

2.20. 50 o'rinli hammomlarda mavjud me'yoriy hujjatlarga muvofiq quruq havoli bug'xonalar yoki fin tipidagi bug'xonalar qurishga ruxsat etiladi.

2.21. Bug'xonalardagi tosh-pechlarni bug'ning chiqish yo'nalishini hisobga olgan holda joylashtirish lozim. Chiqarilayotgan bug' tashqi devorga yo'naltirilganda, pech bilan tashqi devor o'rtasida himoya devorini ko'zda tutish

zarur. Bug'ni eshik va deraza o'rinlariga chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Tosh-pechning o'chog'i bug'xona bilan yondosh maxsus xonaga chiqishi kerak.

3. HO'L VA NAM REJIMLI XONALARNING KONSTRUKSIYALARI VA PARDOZI

3.1. Ho'l rejimli (bug'xona, sovunxona, dushxona va vannaxona) va nam rejimli (echinish xonalari, basseyn xonalari, hojatxonalar) binolar va xonalarning to'siq konstruksiyalari suvga chidamli, nam shimmaydigan va biologik chidamli materiallardan, bo'shliqlar va yopiq havo qatlamlari yoki kanallarsiz bo'lishi lozim. Hisob-kitobga muvofiq shamollatiladigan havo qatlamlari va kanallarni o'rnatishga ruxsat etiladi.

3.2. Silikat, g'ovak g'isht, yengil va g'ovaksimon betonlar hamda boshqa nam shimuvchi materiallarni qo'llash taqiqlanadi.

3.3. Nam va ho'l rejimli xonalarning tashqi devorlari uchun qo'llaniladigan materiallarning sovuqqa chidamlilik darajasini tosh va armaturali tosh konstruksiyalarni loyihalash bo'yicha QMQ va beton hamda temir-beton konstruksiyalarni loyihalash bo'yicha QMQ ga muvofiq, bug' yoki gidroizolyatsiya mavjud bo'lganda bir pog'ona pasaytirmasdan belgilash lozim.

3.4. Temir-beton va po'lat konstruksiyalarni loyihalashda ularni korroziyadan himoya qilishni ko'zda tutish zarur; yog'och konstruksiyalarni loyihalashda esa QMQ 2.04.02-97 [1] ga muvofiq ularning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlovchi choralarni nazarda tutish kerak.

3.5. To'siq konstruksiyalarning ichki yuzalarida namlik va chang to'planishi mumkin bo'lgan bo'rtiqlar va joylar bo'lmasligi lozim. Ho'l va nam rejimli xonalarda devor va ustunlarning pol bilan tutashgan joylari yumaloqlangan bo'lishi kerak.

3.6 Ho'l va nam rejimli xonalarning to'siq konstruksiyalari, hisob-kitoblarga muvofiq, ichki tomondan bug' yoki gidroizolyatsiyaga ega bo'lishi lozim.

Tashqi devorlarning bug' izolyatsiyasi yoki gidroizolyatsiyasi tashqi to'siqlarning butun yuzasi bo'ylab uzluksiz bo'lishi va tutashish joylarida devor qalinligidan kam bo'lmagan masofada qo'shni konstruksiyalarga, shuningdek deraza o'rinlarining qiyaliklariga tashqi romning tashqi yuzasigacha yetib borishi kerak.

3.7. Tashqi devorlarning qoplamalar, chordoq orayopmalari bilan tutashgan joylarida va tashqi devorlarning burchaklarida to'siqning ikki barobar qalinligiga teng bo'lgan kenglikdagi qismlarda bug' izolyatsiyasining bug' o'tkazishga hisobiy qarshiligini 50% ga oshirish lozim.

3.8. Ho'l rejimli xonalar ustida hisob-kitobga ko'ra tabiiy shamollatiladigan chordoq tomlarini ko'zda tutish kerak. Nam rejimli xonalar ustida shamollatiladigan

chordoqsiz yopmalarga ruxsat etiladi. Shamollatish teshiklarining kesimlari hisob-kitob asosida belgilanishi kerak, bunda havo qatlamlari yoki kanallarning eng kichik o'lchami 50 mm bo'lishi lozim.

3.9. Qavatlararo va chordoqli orayopmalarni, shuningdek chordoqsiz yopmalarni kesimi bo'yicha yaxlit temirbetondan loyihalash va choklarni sement qorishmasi bilan puxta berkitishni ko'zda tutish zarur.

Chordoq qoplamalari uchun ignabargli yog'ochlardan yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni loyihalashga ruxsat etiladi, bunda ularni antiseptik moddalar va antipiren bilan ishlov berishni ko'zda tutish lozim.

3.10. Qoplamalar va chordoq orayopmalarini issiqlik izolyatsiyalash uchun biologik chidamli va namga chidamli materiallarni qo'llash kerak. Ushbu konstruksiyalarning bug' izolyatsiyasini hisob-kitob asosida ko'zda tutish lozim.

3.11. Qavatlararo orayopmalarda va birinchi qavat pollarida, nam va ho'l rejimli xonalarda gidroizolyatsiya nazarda tutilishi lozim. Gidroizolyatsiya to'siq va ustun devoriga, pol yuzasidan yuqoriroqqa va eshik o'rnidan tashqariga 300 mm masofaga o'tkazilishi kerak.

3.12. Orayopmalarning yig'ma elementlari orasidagi choklar har tomonga 100 mm qo'shimcha gidroizolyatsiya qatlamiga ega bo'lishi shart.

Birinchi qavatning orayopmalari va pollari orqali o'tadigan traplar va quvurlar bilan gidroizolyatsiyaning tutashgan joylari qo'shimcha ravishda mastikali ikki qavat shisha mato bilan kuchaytirilishi lozim.

3.13. Nam va ho'l rejimli xonalarining pollari namlik va dezinfeksiyalovchi ishqoriy eritmalar ta'siriga chidamli, shuningdek ifloslanishdan oson tozalanadigan bo'lishi kerak.

Sovunxonalar, dushxonalar va bug'xonalarning pollari novlar va traplar tomonga 0,01 - 0,015% qiyalikda bo'lishi lozim. Ho'l rejimli xonalarda pol yuzasi g'adir-budir bo'lishi kerak. Ho'l rejimli xonalarda toza pol sathi boshqa qo'shni xonalar poli sathidan 30 mm past bo'lishi shart.

3.14. Nam va ho'l rejimli xonalarda deraza va eshik o'rinlarini to'ldirish suvga chidamli va biochidamli materiallardan bajarilishi kerak. Antiseptik ishlov berilgan ignabargli daraxt yog'ochidan tayyorlangan, namlanishdan lok-bo'yoq yoki boshqa qoplamalar bilan himoyalangan deraza romlarini nazarda tutishga ruxsat etiladi.

3.15. Shisha bloklar orasidagi choklar, shuningdek shisha-temirbeton elementlarning devor bilan tutashgan joylari ichki va tashqi tomondan germetiklovchi mastikalar yoki qorishmalar bilan to'ldirilishi lozim. Shisha-temirbeton elementlar va devor orasida harorat ta'sirida yuzaga keladigan deformatsiyalarni yo'qotish uchun elastik, biologik chidamli materiallar bilan to'ldirilgan tirqishlar ko'zda tutilishi kerak.

3.16. Xonalarni shamollatish uchun deraza romlarining yuqori qismida ochiladigan framugalar yoki fortochkalar bo'lishi zarur. Framugalar va fortochkalar deraza romlari orasidagi bo'shliqdan alohida ajratilgan bo'lishi kerak.

3.17. Xona tomonidagi deraza tavaqalarining tirgaklari elastik, suvga chidamli qistirmalar (poliuretan, g'ovak rezina va boshqalar) bilan zichlanishi lozim. Deraza romlaridagi oynalar xona tomonidan suvga chidamli zamazka yoki elastik suvga chidamli qistirmalarga o'rnatilishi kerak.

3.18. Nam va ho'l rejimli xonalarning deraza o'rinlarida deraza osti taxtalari o'rniga qiyalikli, sirlangan yoki boshqa suvga chidamli plitkalar bilan qoplangan yonbag'irlar bo'lishi kerak.

3.19. Nam va ho'l rejimli xonalarda devorlar va to'siqlar ma'lum balandlikkacha keramik, polimer yoki shisha plitkalar bilan qoplanishi lozim. Devorlarni pol sathidan 1,8 m balandlikkacha qoplash, undan yuqorisini esa suvga chidamli bo'yoqlar bilan bo'yashga ruxsat etiladi. Xonalarni pardozlash uchun och rangli materiallar tanlanishi kerak. Bug'xona xonalarining devorlari yog'och (qayin, jo'ka, terak yoki tilog'och) bilan pardozlanadi.

Bug'xona xonasida qayin, jo'ka yoki tog'terakdan yasalgan yog'och o'rindiqlar bo'lishi kerak.

3.20. Xonalarni pardozlash uchun gigienik talablarga mos keladigan polimer materiallardan foydalanishga ruxsat beriladi.

4. Suv ta'minoti va oqava suv tizimi

4.1. Hammom binolari suv ta'minoti, oqava suv tizimi, isitish, shamollatish va issiq suv bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Suvning sifati ichimlik suvining davlat standarti (O'zDSt 950:2000) talablariga javob berishi lozim [2].

4.2. Hammomlarda ikkita suv ta'minoti tizimini ko'zda tutish zarur: xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti - tashqi tarmoqlardan va ishlab chiqarish suv ta'minoti - zaxira tenglashtiruvchi idishlardan.

Ishlab chiqarish suv ta'minoti tizimiga sovunxonalarga o'rnatiladigan sanitariya jihozlari, shuningdek ichki va tashqi sug'orish jo'mraklari ulanishi lozim.

Xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimiga yechinish xonalari, hojatxonalar, bufetlar va sartaroshxonalarga o'rnatiladigan sanitariya jihozlari ulanishi kerak.

4.3. Suv iste'moli me'yorlari, hisobiy suv sarfi, jihozlardagi hisobiy bosimlar QMQ 2.04.01-98 [3] ga muvofiq ko'zda tutilishi lozim.

"Binolarning ichki suv ta'minoti va oqava suv tizimi" hamda issiq suv ta'minoti. Bunda hisobiy suv sarfini QMQ 2.04.02-97 ga muvofiq loyihada qabul qilingan xizmat ko'rsatish turlari uchun suv sarfining yig'indisi sifatida aniqlash zarur.

4.4. Sovuq va issiq suvning zaxira tenglashtiruvchi baklari shahar yoki qishloq suv ta'minotidan foydalanilganda yarim soatlik suv sarfiga, mahalliy suv manbalaridan foydalanilganda esa bir soatlik suv sarfiga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

4.5. Zaxira tenglashtiruvchi baklarni o'rnatish balandligi ishlab chiqarish suv ta'minoti tizimi qurilmalarida talab qilingan bosimni ta'minlashi lozim. Suv ta'minoti yoki yer osti suvlari mavjud bo'lmaganda, zaxira tenglashtiruvchi baklarni jihozlashni QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv ta'minoti va kanalizatsiyasi" hamda issiq suv ta'minoti talablariga muvofiq, ish vaqti davomiyligi va o'rinlar soniga qarab rejalashtirish zarur.

4.6. Zaxira tenglashtiruvchi baklardan suv olish ustunlariga va dushlarga suv uzatuvchi quvurlarni o'rnatishni ko'zda tutish lozim. Dushxonalar soni uchtdan ortiq bo'lsa, quvurlarni halqasimon tarzda ulash kerak.

4.7. Aholi punktlarining kanalizatsiyalashtirilmagan hududlarida mahalliy tozalash inshootlari qurilishini rejalashtirish zarur.

4.8. Hammom oqova suvlarini tozalash uchun, agar qishloq yoki shahar kanalizatsiyasi mavjud bo'lsa, maishiy-fekal oqova suvlari bilan birgalikda ishlov berishni ko'zda tutish mumkin. Bunda hammom oqova suvlari miqdorining maishiy-fekal suvlariga nisbati 1:1 dan oshmasligi kerak (hammomlar ishlayotgan vaqtda). Ko'rsatilgan nisbatni qisqa muddatga 1,2:1 gacha oshirishga ruxsat etiladi.

4.9. Pollardan va nam rejimli xonalardan oqova suvlarni chiqarib yuborish uchun diametri 50 va 100 mm bo'lgan traplar ko'zda tutilishi lozim. Traplar quyidagicha joylashtirilishi kerak: diametri 100 mm bo'lgan bitta trap 3-4 ta dush va sovunxona hamda bug'xonada 10 ta o'rin uchun. Yechinish xonalari, sovunxonalar yoki dushxonalar orasidagi tamburlarda diametri 50 mm bo'lgan traplar o'rnatilishi lozim. Sovunxonalardagi o'tish joylarida trap o'rnatish taqiqlanadi.

5. Issiqlik ta'minoti, isitish va ventilyatsiya

5.1. Xonalarining issiqlik ta'minoti, isitish va havo ventilyatsiyasi loyihalari issiqlik tarmoqlarini loyihalash bo'yicha QMQ 2.04.05-97 [4] va ushbu me'yorlarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Hammomlarni issiqlik bilan ta'minlash tuman qozonxonasidan, ular mavjud bo'lmaganda esa 2 turdagi yoqilg'iga mo'ljallangan o'z qozonxonasidan amalga oshirilishi kerak.

5.2. To'suvchi konstruksiyalari tashqi devorlar, qoplamalar yoki chordoq orayopmalari bo'lmagan sovunxona, bug'xona, vannaxona va dushxonalarni isitishni loyihalashda yilning sovuq davri uchun isitish asboblari sonining yetarliligini tekshirish lozim. Ventilyatsiya va havo bilan isitish tizimlari uchun issiqlik tashuvchi sifatida harorati 95 darajadan oshmagan suv ishlatilishi kerak.

5.4. Markaziy isitish tizimlarining isitish asboblari issiqlik tashuvchini yetkazib berish quyidagicha ko'zda tutilishi lozim:

a) 50 o'rindan kam bo'lgan hammomlarda - barcha xonalar uchun bitta quvur orqali;

b) 50 va undan ortiq o'rinli hammomlarda - ikkita quvur o'tkazgich bilan: biri - to'siq konstruksiyalari tashqi devorlar, tom yopmalari yoki chordoq yopmalari bo'lgan xonalardagi isitish asboblari uchun, ikkinchisi - qolgan xonalar uchun.

Bug'xonalarga bug'ni bevosita qozonxonadan yuborishni rejalashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.5. Yechinish, sovunlanish va dush xonalarida havoni resirkulyatsiyasiz, lekin ish vaqtidan tashqari paytlarda havoni qayta aylantirishni hisobga olgan holda, havo bilan isitish tizimini o'rnatish mumkin.

5.6. Isitish tizimlarini loyihalash uchun havo haroratini, shuningdek yilning sovuq davri uchun shamollatish va hammom xonalarida havo almashinuvi darajasini 3-jadvalga muvofiq qabul qilish kerak.

3-jadval

Xonalar	Xonalardagi havo harorati, °C	Xonalardagi havo almashinuvi darajasi, m ³ /soat	
		kirish	chiqish
1	2	3	4
Garderobli vestibyul	18	2	Kamida 2 marta
Kutish xonalari	18	2	1
Echinish xonalari	23-25	3 marta	
Sovunlanish xonalari	26-30	-	
Sovunxona va yechinish xonasi orasidagi tumburlar	25	-	-
Dushxonalar (ochiq kabinalar bilan)	25	4	5
Bug'xonalar	40	-	1
Dam olish xonalari	22	3	3
Sartaroshxonalar	18	-	2
Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xonasi	18	Har bir kishiga kamida 60 m ³ , 3 marta	
Ovqatlanish xonasi	18	-	1
Omborxonalar	16	-	1
Echinish xonalari yonidagi hojatxonalar	20	-	Har bir unitaz uchun 50 m ³
Nasos-filtr xonalari	15	2	3

Bundan tashqari, bir soatda kamida bir marta tabiiy havo almashinuvi ta'minlanishi kerak.

5.7. Isitish asboblari sifatida radiatorlardan foydalanish lozim.

Sovun va dush xonalarida shiftga o'rnatilgan isitish elementli isitish tizimlarini ko'zda tutish mumkin.

5.8. Nam va ho'l rejimli xonalarda tashqi devorlarda isitish asboblari joylashtirish uchun o'yiqlar ko'zda tutilishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.9. Isitish va issiqlik ta'minoti quvurlarini ochiq holda yotqizishni ko'zda tutish lozim.

Ho'l rejimli xonalarda devorlar, to'siqlar va orayopmalardan o'tish joylaridagi quvurlar gidroizolyatsiyali gilzalar bilan o'ralgan bo'lishi kerak.

5.10. Yuvinuvchilar turadigan zonalarda havo harakati tezligini yechinish, sovun, dush xonalarini loyihalashda 0,15 m/s dan oshmaydigan qilib belgilash lozim.

5.11. Ho'l rejimli xonalarning tashqi devorlari, yopmalari va chordoq orayopmalarining issiqlik-texnik hisoblarida xona ichidagi havoning nisbiy namligini 65% deb qabul qilish kerak.

Nam va ho'l rejimli xonalarning tashqi va ichki devorlari qalinligida ventilyatsiya kanallarini joylashtirish taqiqlanadi.

5.12. Ho'l rejimli xonalardan so'ruvchi havo quvurlarini havo harakati yo'nalishida qiya qilib va kondensat chiqarish moslamalari bilan ta'minlangan holda loyihalash lozim.

5.13. Tosh-o'choq turi texnik-iqtisodiy asoslarga muvofiq loyihalash topshirig'i bilan belgilanadi.

Gaz yoqilg'isida ishlaydigan toshli pechlardan foydalanilganda, yonish xavfsizligi avtomatik nazorat qurilmalarini o'rnatishni ko'zda tutish zarur.

6. ELEKTR TA'MINOTI VA ELEKTROTEXNIK QURILMALAR

6.1. Hammomlarning elektrotexnik qurilmalari ShNQ 2.08.02-09 ("Jamoat binolari va inshootlari") hamda "Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari" (EQQ) talablariga muvofiq bo'lishi shart.

6.2. Elektr ta'minoti ishonchliligi jihatidan 50 o'rinli va 100 o'ringacha bo'lgan hammomlar III toifaga kiradi.

6.3. Sun'iy yoritish QMQ 2.01.05-98 ga muvofiq loyihalanishi lozim.

7. HAMMOMLARNING JIHOZLANISHI VA JIHOZLARIGA QO'YILADIGAN SANITARIYA TALABLARI.

7.1. Hammom xonalarida o'rnatiladigan mebellar qattiq yoki yarim qattiq, dermatin, kleyonka yoki plastmassa bilan qoplangan, oson yuviladi va dezinfeksiya qilinadi. Hammom xonalarini yumshoq mebellar bilan jihozlash taqiqlanadi.

7.2. Tana va oyoq yuvish uchun mo'ljallangan tog'oralar zanglamaydigan metallardan yasalgan bo'lishi kerak. Oyoq yuvish uchun mo'ljallangan tog'oralar tana

yuvish tog'oralaridan shakli bilan farq qilishi lozim. Ko'rsatilgan maqsadlar uchun yog'och chelaklardan foydalanish man etiladi.

7.3. Shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan choyshablar va sochiqlar tashrif buyuruvchilarga plombalangan qog'oz paketlarda berilishi shart. Toza kiyimlar ishlatilgan kiyimlardan alohida saqlanishi kerak.

7.4. Sovun, supurgi va boshqa hojatxona buyumlarini sotishga hammomlarning vestibyullarida maxsus tashkil etilgan kioskalarda ruxsat beriladi. Bufetlarda turli hojatxona buyumlarini sotish taqiqlanadi. Tashrif buyuruvchilarga umumiy foydalanish uchun sovun, mochalka, supurgi, bosh taroq va cho'tkalar berish qat'iyan man etiladi.

7.5. Bo'limlarning kiyim almashtirish xonalarida ichimlik suvi solingan tegishli idishlar o'rnatilgan bo'lishi shart.

7.6. "Quruq" rejimli hammom xonalari axlat qutilari va tufdonlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

7.7. Hammom yetarli miqdorda tozalash anjomlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim, bular maxsus ajratilgan xonalarda yoki javon va qutilarda saqlanishi zarur.

7.8. Hammom xonalarida butun ish kuni davomida amaldagi me'yorlarga muvofiq harorat saqlanib turilishi kerak. Hammom xonalaridagi havo haroratini nazorat qilish uchun termometrlar osib qo'yilishi shart.

7.9. Hammomlarning barcha xonalari har kuni ochilishidan oldin, yopilgandan so'ng va tozalash paytida shamollatilishi lozim. Mexanik harakatlantirishli kirituvchi-so'ruvchi shamollatish tizimi bilan jihozlangan hammomlarda shamollatish butun ish vaqti mobaynida amalga oshirilishi kerak.

7.10. Har kuni hammom yopilgandan keyin barcha xonalar, jihozlar va asbob-uskunalar puxtalik bilan tozalanadi.

Hammom xonalarini batafsil tozalash har hafta hammom uchun belgilangan sanitariya kunida o'tkazilishi lozim.

7.11. Sovun va bug' bo'limlarida quyidagi tozalash ishlari bajarilishi kerak:

- metall tog'oralar sovun-kerosin emulsiyasi bilan artiladi (1 litr suvga 20 gramm sovun, 100 gramm kerosin), so'ngra suv bilan chayiladi.

- sovunxona va bug'xonalardagi o'rindiqlar qattiq cho'tkalar yordamida issiq suv va sovun bilan yuviladi.

- sovun, bug', dush xonalaridagi devor panellari, shuningdek, chiqib turgan konstruksiyalar, quvurlar, isitish asboblari, yoritish jihozlari va chiroqlar, deraza oynalari cho'tkalar bilan yuviladi.

- xona pollari suv bilan uzluksiz sug'orilgan holda cho'tkalar yordamida artiladi. Pollarni yuvish tugagach, pollar, devorlar va jihozlar shlang yordamida issiq suv bilan chayiladi.

7.12. Yechinish xonalaridagi mebellar va jihozlar - divanlar, oʻrindiqlar 0,5% li xlorli ohak yoki xloramin eritmasi bilan artiladi. Yechinish xonalarining pollari sovunli va ishqorli eritma qoʻshilgan choʻtkalar bilan artiladi, soʻngra yuviladi.

7.13. Nam kimyoviy dezinfeksiya oyiga bir marta yoki koʻrsatma va kelishuv asosida oʻtkazilishi lozim.

7.14. Vaqti-vaqti bilan xonalar va mebellarni profilaktik dezinfeksiya qilish zarur.

7.15. Har bir hammomda tikilgan va DSENMDa roʻyxatdan oʻtkazilgan sanitariya jurnali, ushbu meʼyoriy hujjat va tibbiyot jurnali boʻlishi shart.

7.16. Ushbu sanitariya-gigiena meʼyorlari va qoidalarining bajarilishi uchun hammom mudiri (direktori) javobgar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. QMQ 2.04.02-97 "Suv taʼminoti tashqi tarmoqlari va inshootlari." Toshkent 1997, 120-bet.

2. GOST

3. QMQ 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv taʼminoti va kanalizatsiyasi." Toshkent, 1998, 100-bet.

4. QMQ 2.04.05-97 "Isitish, shamollatish va havoni konditsiyalash," Toshkent 1997, 100-bet.

5. ShNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish." Toshkent 2003, 116-bet.

6. QMQ 2.01.05-98 "Tabiiy va sunʼiy yoritish". Toshkent 1998, 60-bet.

7. 0154-04-sonli SanQvaM "Hammomlarning qurilishi, jihozlanishi va ulardan foydalanishning sanitariya qoidalari hamda meʼyorlari". Toshkent 2004, 22 bet.